

Raqamli iqtisodiyotda inson kapitalini rivojlantirish masalalari

Mirzaev, Qulmamat Djanzakovich¹, Boboqulov, Sanjar Baxronkulovich²

Вопросы развития человеческого капитала в цифровой экономике

Мирзаев, Кулмамат Джанзакович¹, Бобокулов, Санжар Баҳронкулович²

Issues of human capital development in the digital economy

Mirzaev, Kulmamat Dzhanzakovich¹, Bobokulov, Sanjar Bahronkulovich²

Received: March 12, 2024 Revised: March 15, 2024 Accepted: March 25, 2024 Published Online: April 01, 2024

Annotatsiya: Ushbu maqolada mualliflar raqamli iqtisodiyotda inson kapitalini shakllantirish, rivojlantirish va inson kamoloti indeksi bo'yicha tadqiqotlar tahlili keltirilgan. Shuningdek, raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini shakllantirishning mamlakatimizdagi holati hamda uni yuksaltirish bo'yicha izlanishlar olib borilgan bo'lib, ilmiy taklif va xulosalar berilgan. Bugungu kunda iqtisodiy rivojlantirishda inson bilimi, ko'nikmasi va malaka darajasi asosiy omilga aylanishi inson kapitaliga ustuvorlik bermoqda. Ayniqsa, jahonda rivojlangan davlatlarda inson kapitalining asosiy salmog'i oshmoqda. Ular investitsiyalarining asosiy ulushini ham bevosita inson kapitaliga yo'naltirmoqdalar. Bu esa jahonda raqamli iqtisodiyotda rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Iqtisodiy rivojlanishning sanoat rivojlanishi, sanoat rivojlanishidan keyingi bosqichlari, ayniqsa, innovatsion bosqichi inson kapitali ahamiyatini beqiyos oshirib yubordi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitali iqtisodiy rivojlanish va intensiv ishlab chiqarishning bosh omili sifatida alohida tadqiqot etiladi.

Inson kapitalining o'tgan ma'muriy tizimga asoslangan iqtisodiyotdan hozirgi raqamli iqtisodiyotgacha bo'lgan taraqqiyot bosqichida bir qator yondashuvlar shakllangan. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, yuqoridaq fikrlar maqolada o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, raqamlashtirish, bulut texnologiyasi, inson kapitali, inson resurslari, inson kamoloti, inson taraqqiyoti, indeks, investitsiya, ta'lim, sog'liqni saqlash, milliy daromad, tahlil, komillik.

Аннотация. В данной статье авторы представляют анализ исследований формирования и развития человеческого капитала в условиях цифровой экономики и индекса зрелости человека. Также были проведены исследования состояния формирования человеческого капитала в нашей стране и его совершенствования в условиях цифровой экономики, даны научные предложения и выводы. Сегодня человеческий капитал становится основным фактором человеческих знаний, навыков и квалификации в экономическом развитии. Особенно в развитых странах мира увеличивается основной вес человеческого капитала. Они направляют основную долю своих инвестиций непосредственно в человеческий капитал. Это имеет большое значение в развитии цифровой экономики в мире. Промышленное развитие, постиндустриальные этапы экономического развития, особенно инновационный этап,

неизмеримо повысили значение человеческого капитала. В условиях цифровой экономики отдельно изучается человеческий капитал как основной фактор экономического развития и интенсивного производства.

На этапе развития человеческого капитала от экономики, основанной на прежней административной системе, к современной цифровой экономике сформировался ряд подходов. По результатам исследования изложенные идеи отражены в статье.

Ключевые слова: цифровая экономика, цифровизация, облачные технологии, человеческий капитал, человеческие ресурсы, человеческая зрелость, человеческое развитие, индекс, инвестиции, образование, здравоохранение, национальный доход, анализ, совершенство.

Annotation. In this article, the authors present an analysis of research into the formation and development of human capital in the digital economy and the human maturity index. Research was also conducted on the state of human capital formation in our country and its improvement in the digital economy, scientific proposals and conclusions were given. Today, human capital is becoming the main factor of human knowledge, skills and qualifications in economic development. Especially in the developed countries of the world, the bulk of human capital is increasing. They direct the bulk of their investments directly into human capital. This is of great importance in the development of the digital economy in the world.

Industrial development, post-industrial stages of economic development, especially the innovative stage, have immeasurably increased the importance of human capital. In the digital economy, human capital is studied separately as the main factor in economic development and intensive production.

At the stage of development of human capital from an economy based on the previous administrative system to a modern digital economy, a number of approaches have emerged. Based on the results of the study, the ideas presented are reflected in the article.

Keywords: digital economy, digitalization, cloud technologies, human capital, human resources, human maturity, human development, index, investment, education, healthcare, national income, analysis, excellence.

KIRISH

Raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mamlakat rivoji uchun o'zining muhim hissasini qo'shib, aholi turmush darajasi va farovonligining yuksalishiga xizmat qilmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning rivojlanishida asosiy lokomitivlardan biri sifatida raqamli iqtisodiyotni keltirib o'tish maqsadga muvofiqdir. Mamlakatimizda tarmoq va sohalarni raqamlashtirish faoliyatini tashkil etish, uni rivojlantirishga alohida shart-sharoitlar yaratilib, imtiyozli yordamlar berilmoxda. Aholiga raqamli xizmat ko'rsatish sohasi hozirgi vaqtida iqtisodiy jarayonlarning barcha jahbalariga tobora kuchliroq kirib bormoqda. Ammo, uning milliy iqtisodiyotdagi samaradorligi ko'p jihatdan yangicha ijtimoiy mehnat munosabatlari, ya'ni inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirishga bog'liq bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "...iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilanishini ko'zda tutadigan "Raqamli iqtisodiyot milliy konsepsiysi"ni ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish kerak" [1] deb

ta'kidlaganlari, mamlakatimiz iqtisodiyot tarmoqlarini bosqichma-bosqich raqamli texnologiyalar dasturiga o'tkazishni hamda 2030 yilga borib yalpi ichki mahsulotda uning ulushini kamida 30 foizga o'stirish kabi ustuvor maqsadlar qo'yilgani bugungi davrning asosiy vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Bunday vazifalarni amalga oshirish iqtisodiy islohotlarning ustuvor vazifalari qatoridan joy olib, inson kapitalini shakllantirish orqali xizmat ko'rsatish tizimini rivojlantirish, uni raqamli texnologiyalar asosida diversifikatsiyalashni taqozo etmoqda. Buning samarali yechimi sifatida inson kapitali indeksini takomillashtirish, undan samarali foydalanilgan holda innovatsion loyihamar, "nau-xau"lar, "startap" loyihamar, raqamli texnologiyalarni takomillashtirishda faol foydalanish bugungi davrning dolzarb muammolari biri bo'lib qolmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING SHARHI

Raqamli iqtisodiyotda inson kapitali masalalari mavzusida ko'plab xorijlik va respublikamiz olimlari tadqiqoqlar olib borgan bo'lib, uning turi, shakli va

rivojlanish bosqichlariga alohida e'tibor berishgan. Xususan, bu borada mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida inson kapitali haqida "Binobarin, inson kapitaligiga e'tiborni kuchaytirishimiz, buning uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etishimiz shart", - deb ta'kidlab o'tgan [2]. Xorijlik olimlardan G.Bekker fikricha, "inson kapitali" – bu tug'ma qobiliyatlar va olingan bilim, ko'nikma va motivatsiyalar to'plami bo'lib, ulardan (korxona yoki jamiyatning shaxsi darajasida) to'g'ri foydalanish natijasida daromadni oshirishga erishiladi [3], - deb ta'kidlab o'tgan. Shuningdek, raqamlashtirish masalalari bo'yicha Fotis Kitsios, Mariya Kamariotu "Xizmat ko'rsatish sohasidagi innovatsiyalar jarayonini raqamlashtirish: foydalanish va tadqiqot sohalari" nomli ilmiy maqolasida innovatsion iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatish sohasini raqamlashtirishning maqsadi, yangi turdag'i xizmatlarni ishlab chiqish jarayonida raqamli dastur va texnologiyaning o'rni va xizmat ko'rsatishni amalga oshirishda menejerlarning raqamli texnologiyadan samarali foydalanish yo'llari, shuningdek, raqamli xizmat ko'rsatish sohasiga texnologik darajani yuksaltirishga investitsiyalarni jalg qilishda inson kapitalining ahamiyatini yoritishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilgan [4].

Bu borada mamlakatimiz olimlaridan biri Q.H.Abduraxmanov "Inson kapitalining ahamiyati tabiiy resurslar, moddiy boylik va vositalarga qaraganda yuqoriqoqdir" [5], - deb hisoblagan. Yana bir iqtisodchi olim J.N.Fayzullaev "Raqamli iqtisodiyot tushunchasining mohiyati bo'yicha ilmiy yondashuvlar tahlili" nomli ilmiy maqolasida "raqamli iqtisodiyot" tushunchasining shakllanishi, uning mazmun va mohiyati bo'yicha ilmiy yondashuvlar qiyosiy tahlil qilingan va guruhlangan. "Raqamli iqtisodiyot" tushunchasining iqtisodiy kategoriya sifatidagi mazmuni yoritilgan [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur muammoni tadqiqotining bir qator usullardan foydalanish asosida o'rganilgan, jumladan, asosan xorijiy tajribalarni monografik tahlillar natijalarini monografik tadqiqot, analiz va sintez, tizimli tahlil kabi iqtisodiy usullar asosida o'rganilib, rivojlangan

mamlakatlar tajribasini mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohasini raqamli texnologiyalar bilan diversifikasiya qilish bo'yicha imkoniyatlarini ochib berishda ahamiyat kasb etgan.

ASOSIY TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon global iqtisodiyoti tezlashuvi inson kapitaliga ahamiyati berishni, uni rivojlantirishni taqozo etadi. Bugungu kunda iqtisodiy rivojlantirishda inson bilimi, ko'nikmasi va malaka darajasi asosiy omilga aylanishi inson kapitaliga ustuvorlik bermoqda. Ayniqsa, jahonning rivojlangan davlatlarda inson kapitalining asosiy salmog'i oshmoqda. Ular investitsiyalarining asosiy ulushini ham bevosita inson kapitaliga yo'naltirmoqdalar. Bu esa jahonda raqamli iqtisodiyotda rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Iqtisodiy rivojlanishning sanoat rivojlanishi, sanoat rivojlanishidan keyingibosqichlari, ayniqsa, innovatsion bosqichi inson kapitali ahamiyatini beqiyos oshirib yubordi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitali iqtisodiy rivojlanish intensiv ishlab chiqarishining bosh omili sifatida alohida tadqiqotni talab etadi.

Inson kapitalining o'tgan ma'muriy tizimga asoslangan iqtisodiyotdan hozirgi raqamli iqtisodiyotga bo'lgan taraqqiyot bosqichida bir qator yondashuvlar shakllangan. Inson kapitali konsepsiysi XVII asrda paydo bo'lgan deb hisoblansa ham uning zamонави талқинлари T.Shuls va G.Bekker nomlari bilan bog'liq [7]. T.Shuls "daromad keltirishga qodir bo'lgan yoki odamlar tomonidan tovar va xizmatlar ishlab chiqarish uchun yaratilgan resurslar" hisoblangan kapitalni inson kapitali va ashyoviy kapitalga ajratish kerakligini ko'rsatgan. U birinchilardan bo'lib inson kapitali tushunchasiga ishlab chiqaruvchi omil sifatida qaragan. Olimning baholashicha, jamiyatda ishlab chiqarilayotgan jamlanma mahsulot umumiy hajmining to'rtadan uch qismi inson kapitalini to'plashga sarflanmoqda. Holbuki, XX asrdagi takror hosil qilishga doir ko'pchilik nazariyalarda bu ko'rsatkich to'rtadan bir qismni tashkil etadi, deb ko'rsatilar edi.

Soha mutaxassislari, G.Bekker inson kapitali tushunchasini birinchi bo'lib mikrodarajada qo'llay boshlagan. U korxonadagi inson kapitalini inson ko'nikmalari, bilim va mahoratining jamlanmasi deb

belgilagan. Bunda u xodimlarni maxsus o'qitish, ularda maxsus bilim va ko'nikmalar hosil qilishga alohida ahamiyat bergen. Amerikalik iqtisodchining hisoblashicha, xodimlarning maxsus tayyorgarligi firmaning raqobat ustuvorligini shakllantiradi. Bu bozorlarda mahsulotlarning ma'lum va mashhur bo'lishi, pirovard natijada firmaning nufuzi, nou-xausi va savdo belgisida o'z ifodasini topadi. Xodimlarni maxsus tayyorlashdan, eng avvalo, firma va kompaniyalarning o'zlari manfaatdor, shuning uchun ular buni o'zlari moliyalashtiradilar.

G.Bekker oliy ta'limga olinadigan qo'shimcha daromadni quyidagi tarzda belgilagan: kollejni tugallaganlar ishlab topgan daromaddan o'rta ma'lumotga ega xodimlarniki ayrıldi. Ta'limga chiqimlar ham ta'lim olish uchun bevosita xarajatlar, ham muqobil chiqimlar – o'qish davrida boy berilgan daromadlardir. Uning hisoblab chiqishicha, ta'limga investitsiyalar yiliga taxminan 12,0-14,0 % miqdorida foyda keltiradi [6].

Mazkur tadqiqotlarning amaliy ahamiyati shundan iboratki, G.Bekker inson kapitaliga investitsiyalar rentabelligining miqdorini aniqladi va uni AQShdag'i ko'pgina firmalarning rentabelligi bilan taqqosladi. Xususiy ta'lim muassasalari sonining ko'payishi, qisqa muddatli seminarlar va maxsus kurslartashkiletadigan konsalting firmalari faoliyatining kengayishi natijasida ta'lim faoliyatining xususiy sektordagi rentabellik darajasi tijorat faoliyatining boshqa turlari rentabelligi darajasidan 10,0-15,0 % ortiq ekanligini ko'rsatdi [8]. Respublikamiz olimlaridan inson kapitali to'g'risida quyidagi yirik soha mutaxassislari o'z fikrlarini bayon qilishgan. Jumladan, iqtisodiyot fanlari doktori, professor M.Q.Pardayevning fikriga ko'ra, "inson kapitali deganda hamma ishga qodir, bilimli mutaxassis tushuniladi. Bu esa o'z navbatida fan, texnika, texnologiya va inson omilini o'zida mujassamlashtiradi" [9], - deb hisoblaydi. Shu bilan birga inson kapitali va malakali inson shakllanishidagi o'rni to'g'risida iqtisodiyot fanlari doktori, akademik S.S.G'ulomov, akademik Q.X.Abduraxmonovlar ham ilmiy asoslangan o'z qarashlarini bayon qilib, ularning fikricha, inson kapitalining asosi ta'lim xizmatlarini rivojlantirishda, shuningdek, intellektual mulknii shakllantirishda ekanligini bayon qilishgan.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, "inson kapitalining

ahamiyati tabiiy resurslar, moddiy boylik va vositalarga qaraganda yuqoriqdir" [10]. Bu esa inson kapitali iqtisodiy o'sish va samaradorlikning asosiy omili ekanligini ifodalaydi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitalining iqtisodiy kategoriysi sifatidagi tushunchasi jahon axborot hamjamiyati va "bilimlar iqtisodiyoti" rivojlanishi bilan birgalikda muntazam ravishda kengayib bormoqda. Bu inson kapitalini rivojlantirishning ishlab chiqaruvchi omili sifatida samarali va oqilona amal etishini ta'minlaydi.

Raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida butun dunyoda shuningdek, mamlakatimizda inson kamoloti indeksiga alohida e'tibor berilmoqda. Bu o'z navbatida yurtimizda erkin demokratik muhitning takomillashuvi, ijtimoiy-iqtisodiy sohaning rivoji, aholi turmush farovonligining yuksalishida o'zining salmoqli hissasini qo'shishi bugungu kunda namoyon bo'lmoqda. Aslida, inson kamoloti indeksi haqida (Human Development Index) to'xtalar ekanmiz, bu indikator BMT Taraqqiyot Dasturi tomonidan 1990 yildan beri yuritib kelinmoqda hamda har yilning oxirida dunyo davlatlari tomonidan hisobot berilib tahlil qilib boriladi.

Jumladan, inson kamoloti indeksi 189 ta davlatlarning iqtisodiy va siyosiy o'sishi, inson kapitalining (uzoq umr, ta'lim, farovon hayot ko'rsatkichlari orqali) rivojlanishiga ta'sirini hamda jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini tahlil qiladi. Hozirda inson kamoloti indeksi odamlar uchun zarur bo'lgan uchta ko'rsatkich orqali hisoblanadi [11]. Bular:

1. Umr ko'rish davomiyligi indeksi;
2. Ta'lim indeksi;
3. Aholi jon boshiga YaMD indeksi¹

Inson kamoloti indeksining asosiy funksional vazifalaridan biri bo'lib inson kapitalini takomillashtirish hisoblanadi va bu tahlillar olib borishni nazarda tutadi. Inson kapitali hozirgi davrga kelib ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida muhim ahamiyat kasb etganligi bois, dunyoda inson kamoloti indeksiga alohida e'tibor berilmoqda.

Inson kamoloti indeksi hozirgi davrda mamlakatimizda hamda butun dunyoda BMT tomonidan qabul qilingan normativlarga ko'ra uchta mezon bo'yicha o'chanadi. Avvalo yakuniy indeks ko'rsatkichini aniqlash uchun har bir mezonnning indeksi hisoblab chiqilishi kerak. Ko'rsatkichlarni 0 dan 1 (3 ta o'nlik aniqlik bilan

o'lchanadigan ma'lumot)gacha bo'lgan miqdorini indekslarga aylantirish uchun mezonlarning eng kam va eng ko'p miqdorlarini tahlil qilish talab etiladi. Yakuniy indeks ko'rsatkichini hisoblab chiqish uchun o'rtacha geometrik miqdorlar usulidan foydalilanadi va shuning uchun eng ko'p miqdor har qanday ikki mamlakat yoki vaqt davrlari o'rtaсидagi taqqoslash davomida nisbiy ko'rsatkichlar ta'sir ko'rsatmaydi. Shuningdek, inson kamolati umr ko'rish davomiyligi indeksi quyidagi ko'rsatkich orqali aniqlanadi:

Bu yerda:

LE - (Life expectancy)-o'rtacha umr ko'rish davomiyligi (UNDESA ma'lumotlari asosida shakllantiriladi). Shu o'rinda ta'kidlash joizki, barcha yoshdagi aholining o'lim ko'rsatkichlari ko'rib chiqilayotgan yil bilan bir xil bo'ladi. Bunda taxmin qilish mumkin bo'lgan kelajakda o'rtacha umr ko'rish davomiyligi qiymati nazarda tutiladi. Keyingi ko'rsatkich sifatida ta'lim indeksini ham ma'lum formulalar asosida aniqlab hisoblab boriladi.

Ta'lim indeksini aniqlashtirib olishimizda o'rtacha ta'lim davomiyligi, kutilayotgan ta'lim davomiyligi, aholining oliv ma'lumotli darajasi, ta'limga kiritiladigan investitsiya miqdorlari kabi ko'rsatkichlar orqali holatlar aniqlanib, inson kamolotini yuksaltirish uchun zaruriy vazifalar amalga oshirilib boriladi. Bu jarayon albatta aholining ijtimoiy, ilmiy ehtiyojlariga bo'lgan talabni qondirib kelajakda mamlakat rivojiga munosib hissa qo'shishi mumkin.

Inson kamolotining ta'lim indeksi quyidagi formula orqali aniqladi;

Bu yerda:

MYS (Mean years of schooling) - o'rtacha ta'lim davomiyligi (UNESCO ma'lumotlari asosida shakllantiriladi);

EYS (Expected years of schooling) - kutilayotgan ta'lim davomiyligi (UNESCO ma'lumotlari asosida shakllantiriladi);

Shuningdek, inson kamoloti indeksining uchinchi ko'rsatkichi aholi jon boshiga YaMD (Yalpi milliy

$$\text{Aholining umr ko'rish davomiyligi indeksi} = \frac{LE - 20}{85 - 20} \quad (1);$$

daromad)ning to'g'ri kelishi bo'yicha mezon quyidagi formula orqali aniqlanadi:

Bu yerda:

GNI pc (Gross National Income per capita) – YaMDning aholi jon boshiga nisbati, xarid qobiliyati pariteti bo'yicha AQSh dollarida. Ushbu paritet jahon amaliyotida "World Bank, International Monetary Fund, United Nations Statistics Division" ma'lumotlari asosida shakllantiriladi.

Xususan, minimal ko'rsatkichlar – indikator ko'rsatkichlarining boshlang'ich nuqtalarini misol

uchun, o'rtacha ta'lim davomiyligini 0 ga teng deb olinishi, bu rasmiy ta'limsiz mamlakatlarni ifodalaydi, maksimal ko'rsatkichlar – tegishli yillarga mo'ljallangan eng yuqori ko'rsatkichni misol uchun, o'rtacha ta'lim davomiyligini 15 ga teng deb olinishi, bu ko'rsatkichning maqsad qilingan eng yuqori qiymat bo'lishini anglatadi. Indeks ko'rsatkichi yuqorida keltirilgan formulalar asosida hisoblab chiqilgandan so'ng, mamlakatlarning reyting ko'rsatkichlari tuziladi hamda reytingga ko'ra mamlakatlarda inson rivojlanishining to'rtta darajaga ko'ra mamlakatlar guruhlarga ajratiladi (1-jadval). Hozirgi davrda mamlakatimizda amalga oshiriladigan

$$\text{Aholining ta'lim indeksi} = \frac{MYS - EYS}{2} \quad (2);$$

strategik rejalarining asosiy maqsadi bu yaqin davr ichida inson taraqqiyotining yuqori darajasi ko'rsatkichiga, keyingi 15 yil ichida esa inson taraqqiyotining eng yuqori darajasiga erishishdir.

Xususan "Inson kamoloti" hisoboti natijalariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi yuqori inson kamoloti

darajasiga ega davlatlar qatoridan joy oldi hamda indeksda 0,720 ko'rsatkichi bilan 102-o'rinni egallab, avvalgi qayd etgan natijasiga nisbatan 4 pog'ona yuqoriga ko'tarilgan.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ko'plab taraqqiy etgan mamlakatlar inson kapitalini shakllantirishda

$$\text{Aholi jon boshiga YaMD} = \frac{\ln(GNIpc) - \ln(100)}{\ln(75000) - \ln(100)} \quad (3);$$

investitsiyalar kiritib kelinmoqda. Bu borada mamlakatimizda ham ilg'or maqsadlar belgilanib, bosqichma-bosqich hayotga tadbiq etilmoqda. Xususan, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan "Taraqqiyot strategiyasi"ning to'rtinchisi yo'nalishini "Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish" deb nomlangani hamda ushbu yo'nalish kesimida o'ttiz to'rtda maqsad belgilanganligi muhim ahamiyat kasb etishini bildirmoqda.

Jumladan, inson kamoloti indekslari ichida ta'lif indeksini rivojlantirish, inson kapitalini shakllantirishda

muhim indikatorlardan biri bo'lib ta'lif darajasi, sifati, qamrovi, infratuzilmalarining zamonaviy holati hamda ta'limga kiritiladigan investitsiyalar kabi ko'rsatmalar asosida baholanib tahlil etiladi. Hozirgi vaqtida eng samara beruvchi investitsiya bu ta'limga kiritiladigan investitsiya ekanligi jahon tajribasidan namoyon bo'lmoqda. Bu borada AQSH dunyoda yetakchi mamlakatlar qatoridan o'rinni egallagan (2-jadval). Jadval ma'lumotlariga qaraydigan bo'lsak, dunyoda yetakchi o'rinnlarda AQSH turibdi. AQSH uch yoshdan yigirma ikki yoshgacha bo'lgan davrda 231000

1-jadval.

Inson kamoloti indeksining reyting ko'rsatkichlari

Nº	Tasnifi	Darajasi
1	Inson taraqqiyotining eng yuqori darajasi	0,800-1,000
2	Inson taraqqiyotining yuqori darajasi	0,700-0,799
3	Inson rivojlanishining o'rtacha darajasi	0,550-0,699
4	Inson taraqqiyotining past darajasi	0,550 dan past

ming AQSH dollarini ta'limga investitsiya kiritilar ekan, bu yigirma uch yoshdan, oltmis yoshgacha bo'lgan davrda mamlakatga 3100000 AQSH dollarini miqdorida samara olib kelar ekan. Bundan keyingi ko'rsatkichlarda Germaniya, Janubiy Koreya, Singapur kabi mamlakatlarda ham ijobji natijalarni ko'rishimiz mumkin. Bu borada mamlakatimiz natijalariga e'tibor beradigan bo'lsak, farzandlar ta'lif-tarbiyasi, ularni inson kapitali sifatida shakllanishida 19000 ming AQSH dollari sarflanib, kelajakda bu 78000 ming AQSH dollari

atrofida qaytib kelarkan. Hozirgi globalashuv davrida bu ko'rsatkich miqdoran kamligi hamda natijasi ham shunga muvofiqligini ko'rishimiz mumkin.

Davlatimiz tomonidan olib boriladigan islohotlar, qabul qilingan normalar, dasturlar miqdorini yil sayin oshib borishi yaqin kelajakda inson kapitaliga kiritiladigan investitsiya miqdorini ortishiga va buning natijasida qiymat miqdorining ham yuksalishini bashorat qilishimiz mumkin [12].

Shuningdek, inson kapitali rivojida davlatimiz

tomonidan imtiyozlik kreditlar ajratish, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida turli yo'nalishlarda grant dasturlarni joriy etish, mamlakatimiz yoshlarini milliy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida faol loyihalarni amalga oshirish va ta'limg-tarbiya berish jarayonida yangi milliy qadriyatlarga mos keladigan usullarni amalga tadbiq etish orqali yaqin davr ichida

davlatimiz inson kapitalini rivojlantirish mumkindir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini rivojlantirish uchun yaqin davrlar ichida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar tez sur'atlarda hayotga

2-jadval.

Ta'limga kiritiladigan investitsiyalar

Nº	Davlatlar	3-22 yoshgacha davrda ta'limga sarflanadigan kapital (dollar)	23-60 yoshgacha davrda yaratiladi-gan qiymatning miqdori (dollar)
1	AQSH	231000	3100000
2	Germaniya	156000	2465000
3	Janubiy Koreya	130000	2100000
4	Singapur	125000	2050000
5	O'zbekiston	19000	78000

tadbiq etishni talab qilmoqda. Shuningdek, ishsiz fuqarolarni mintaqalararo bosqichma-bosqich kasb-hunarga o'qitish dasturini ishlab chiqish, mакtabgacha nodavlat tashkilotlar sonini oshirish va ularda ta'limg berish metodikasini ishlab chiqish hamda vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, xususiy maktab ta'limg faoliyatini takomillashtirish va uning ta'limg xizmatlarini diversifikasiya qilish, ta'limg berish jarayonida o'quvchilarga faqat dars mashg'ulotlarini "yod olish" emas, muammoli vaziyatni bartaraf etishga yo'naltirish ishlarini olib borishimiz darkor. Shuningdek, ta'limg tizimini nazorat qilish va kuzatish jarayonlarini to'laqonli raqamlashtirish, raqamli dasturiy ta'minot tuzuvchi subyektlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanilgan holda inson kapitalini takomillashtirishda foydalanish zarurdir. Zero, hozirgivaqtida eng katta muammomiz bu maktab, oliy ta'limgagi ta'limg-tarbiya berish jarayonlari asosan bizda ta'limg oluvchilar mashg'ulotlarning yod olishga mo'ljalanganligi, buning natijasida bo'lajak kadrlarga kelajakda kerakli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila olmayotganligi bilan muammo bo'lib qolmoqda.

Yuqorida keltirilgan tashqivotlarning tez sur'atlarda amaliyotga joriy etilishi, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi mamlakatimizni ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jabhalarda rivojlanishi, natijada yaqin davrlar ichida mamlakatimiz ham rivojlangan mamlakatlar qatoriga kirishi, raqamli iqtisodiyot sharoitida inson kapitali eksportida jahon bozorlarida yetakchi davlatlar qatoriga kirishiga xizmat qiladi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

- Mirzaev, Qulmamat Djanzakovich** - Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Raqamli iqtisodiyot kafedrasi mudiri i.f.d., professor / **Мирзаев, Кулмамат Джанзакович** - Самаркандский институт экономики и сервиса, Заведующий кафедрой цифровой экономики, профессор / **Mirzaev, Kulmamat Dzhanzakovich** - Samarkand Institute of Economics and Service, Head of the Department of Digital Economy, Professor
kulmamat.j.m@gmail.com
<https://orcid.org/0009-0008-8558-2455>
- Boboqulov, Sanjar Baxronkulovich** - Samarqand iqtisodiyot va servis instituti PhD, dotsent v/b / **Бобокулов, Санжар Бахронкулович** - Самаркандский институт экономики и сервиса,

PhD, и.о.доцент / **Bobokulov, Sanjar Bahronkulovich**
 - Samarkand Institute of Economics and Service, PhD,
 acting associate professor
 ferdu_www@mail.ru
<https://orcid.org/0000-0002-1882-1507>

texnologiyalar nashriyoti-matba uyi. 2021 yil. 118-b.
 [9] www.stat.uz O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika
 qo'mitasining veb sayti.
 [10] <https://old.mineconomy.uz>
 [11] [https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/
 social-protection-2](https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-protection-2)
 [12] [http://hdr.undp.org/sites/default/files/hdr2020_
 technical_notes.pdf](http://hdr.undp.org/sites/default/files/hdr2020_technical_notes.pdf)

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- [1] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "2022—2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son Farmoni. Toshkent sh., 2022 yil 28 yanvar, www.lex.uz
- [2] Sh.M.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisiga Murojatnomasi. Xalq so'zi gazetasi. 28.12.2018
- [3] Теодор Уильям Шульц (ингл. Theodore William Schultz, 1902-1998) – америкалик иқтисодчи, "ривожланаётган мамлакатлардаги иқтисодий ривожланиш муаммолари тадқиқотлари учун" 1979 йилги Нобель мукофоти лауреати.
- [4] M.X.Saidova "O'zbekiston mehnat bozorida yoshlari ishlisi: muammolar va ularning ayrim yechimlari" IQTISOD VA MOLIYA. UDK: 331.526 2019, 9(129)
- [5] Z.G.Shakarov "Yoshlarning ish bilan bandlik darajasini oshirish: muammo va imkoniyatlar" "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnalni. № 6, noyabr-dekabr, 2021 yil
- [6] Абдураҳмонов Қ.Х. Мехнат иқтисодиёти. Олий ўқув юртлари учун дарслик.-Т.: "Mehnat", 2009.-6.
- [7] Беккер Г. Человеческое поведение: экономический подход. Избранные труды по экономической теории. /Пер. с англ., сост., научн. ред., послес. Капелнюшников Р.И. -М.: ГУ ВШЭ, 2003. – С. 121.
- [8] Abdurahmonov Q.X. Pardayev M.Q. va boshqalar. Raqamli iqtisodiyotning nazariy va amaliy masalalari. Fan va